XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy +998 66 629 1521

2025-yil 21-fevral VII-5-44-7-95-K/25 Ishtixon tumani

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida 2024-yil II yarim yillik davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman prokurori U.Butunovning axboroti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 20-fevraldagi “Xalq deputatlari tuman Kengashida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hisobotlarini eshitish to‘g‘risida”gi KQ-687-IV-sonli Qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 5-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida 2024-yil II yarim yillik davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman prokurori U.Butunovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishtixon tumani prokuraturasi (U.Butunov)ga:

- qonun ustuvorligini ta’minlash, qonunlar ijrosi nazoratini yanada mustahkamlash, bu borada barcha mutasaddi tashkilotlar va Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari bilan hamkorlikda targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- tuman hududida jinoyatchilikka, ayniqsa poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarga va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko‘rinishlariga qarshi kurashish borasida keng jamoatchilik va Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o‘tkazib borish;

- tumanda voyaga yetmaganlar va xotin-qizlar o‘rtasida jinoyat sodir etilishi, ular tomonidan o‘z joniga qasd qilish holatlarini oldini olishga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

- sog‘liqni saqlashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini nazorat qilish;

- tumanda qurilish sohasida va qurilish-pudrat ishlarining sifatli bajarilishi va loyiha hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish;

- barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida qonuniylikni qat’iy ta’minlash;

- sektorlarda amalga oshirilgan ishlarni tizimli tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, bajarilmagan tadbirlarning sabablarini aniqlash va joyida bartaraf qilish;

- jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayonida xalq ichiga yanada kirish, muloqot qilish, dardini eshitish va muammolarini qonuniy va eng muhimi, adolatli hal etishda qonuniylikni mustahkamlash;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish, asl sabablarini bartaraf qilish, tizimli qonunbuzilish holatlariga barham berish uchun qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyatni takomillashtirish;

- jinoyatchilikning oldini olish borasida hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida tadbirlar samaradorligini oshirishga e’tibor qaratilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi muharriri (M.Rabbimova) hududlarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash va huquqiy masalalar bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raximov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi KIYAMOV NURALI KUVANDIKOVICH